OSHPAZLIK LEKSIKASIDA GIBRID NOMINATSIYALAR

Ro‘ziyev Qahramon Kuzimuratovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tayanch doktoranti (Denov, O‘zbekiston)
E-mail: roziyevqahramon585@gmail.com
ORCID: 0009-0000-8989-2903
Tel:+998-88-810-57-07

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili oshpazlik leksikasida gibrid nominatsiyalarning shakllanishi, strukturaviy-semantik xususiyatlari hamda tarixiy va zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari tahlil qilingan. Gibrid nominatsiyalar turli til va madaniyat qatlamlariga mansub komponentlarning yagona nominativ birlik tarkibida birlashuvi hamda o‘zlashma birliklarning o‘zbek tilining ichki derivatsion imkoniyatlari asosida yangi nom hosil qilish jarayoni sifatida talqin etilgan. Gibridlashuv o‘zbek oshpazlik leksikasining tarixiy-madaniy aloqalar va globallashuv ta’sirida muntazam yangilanib borayotgan dinamik nominativ qatlamlaridan biri ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar. oshpazlik leksikasi, gibrid nominatsiya, gastronomik birlik, nominatsiya, o‘zlashma birlik, derivatsiya, strukturaviy model.

Аннотация. В статье анализируются формирование гибридных номинаций в кулинарной лексике узбекского языка, их структурно-семантические особенности, а также исторические и современные тенденции развития. Гибридная номинация рассматривается как процесс объединения в составе единой номинативной единицы компонентов, относящихся к различным языковым и культурным пластам, а также образования новых наименований на основе заимствованных единиц с использованием внутренних деривационных возможностей узбекского языка. Гибридизация представляет собой один из динамично развивающихся номинативных пластов узбекской кулинарной лексики, постоянно обновляющийся под влиянием историко-культурных контактов и процессов глобализации.

Ключевые слова: кулинарная лексика, гибридная номинация, гастрономическая единица, номинация, заимствованная единица, деривация, структурная модель.

Abstract. This article analyzes the formation of hybrid nominations in the culinary lexicon of the Uzbek language, their structural and semantic features, as well

as historical and contemporary trends in their development. Hybrid nomination is interpreted as the combination of components belonging to different linguistic and cultural layers within a single nominative unit and as the formation of new names from borrowed elements through the internal derivational resources of the Uzbek language. Hybridization constitutes a dynamic nominative layer of the Uzbek culinary lexicon that is continuously renewed under the influence of historical and cultural contacts and globalization.

Keywords: *culinary lexicon, hybrid nomination, gastronomic unit, nomination, borrowed unit, derivation, structural model.*

O‘zbek tili oshpazlik leksikasi yuzaki qaralganda oddiy nomlash tizimidek ko‘rinsa-da, aslida u butun bir xalqning tarixiy turmushi, xo‘jalik faoliyati, madaniy aloqalari va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi murakkab qatlamlardan biridir. Olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, taom nomlari ko‘pincha faqat ovqatni atash vazifasini bajarib qolmasdan, balki muayyan hudud, davr, mahsulot va hatto ijtimoiy munosabatlar haqidagi axborotni ham o‘zida mujassam etadi. Shu sababli oshpazlik leksikasini tahlil qilishda uni faqat nominativ birlik sifatida emas, balki ko‘p qatlamli lingvomadaniy hodisa sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Markaziy Osiyo hududi tarixan turli madaniyatlar kesishgan makon bo‘lgani sababli ushbu holat oshpazlik nomlarida ham yaqqol aks etadi. Turkiy asosdagi qadimiy birliklar bilan bir qatorda fors-tojik, arab, keyinchalik rus va zamonaviy global o‘zgarishlar natijasida shakllangan nomlar ham faol qo‘llanadi. Masalan, kundalik nutqda uchraydigan *ko‘k somsa, go‘shtli manti, tandir kabob, moshxo‘rda, shashlikxona, somsapaz, kafe, oshxona, milliy fastfud, tandir lavash* kabi birliklarda turli til qatlamlari o‘zaro tutashganini ko‘rish mumkin. Bunday misollar tasodifiy emas, balki tarixiy aloqalar natijasida shakllangan barqaror tuzilmalar mavjud ekanligini anglatadi. Gibrid nominatsiya turli til yoki madaniyat qatlamlariga mansub komponentlarning bitta nom tarkibida birlashishi yoki o‘zlashma birlikning o‘zbek tilining ichki tizimiga moslashib, yangi leksema hosil qilishda ishtirok etishidir [1, 93-97][26]. Masalan, *shashlikxona* so‘zida taom nomi bilan joy bildiruvchi element birlashgan bo‘lsa, *somsapaz* birlikida taom nomi kasb bildiruvchi komponent bilan qo‘shilgan. Bu kabi misollar shuni ko‘rsatadiki, til tizimiga kirgan o‘zlashma birliklar o‘zgarishsiz qolmaydi, balki ichki so‘z yasalish tizimida faol ishlatiladi. Ayrim hollarda taom nomi tarkibida mahsulot, tayyorlash usuli yoki pishirish vositasi asosiy nominativ belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, *tandir kabob*da pishirish muhiti, *go‘shtli manti*da tarkibiy komponent, *moshxo‘rda*da esa asosiy mahsulot nomlashning

[26] Davronova A. O‘zbek va ingliz tillarida gibrid so‘zlarning onomastik birliklarda ifodalanishi // Ilm vaqti ilmiy jurnali. 2024. – № 4. – B. 93-97.

markaziy elementi hisoblanadi. Shunga o‘xshash birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek oshpazlik leksikasida nomlash jarayoni ko‘pincha birgina belgiga emas, balki bir nechta semantik omillarning uyg‘unligiga asoslanadi.

Zamonaviy o‘zbek tilidagi leksik birliklarni tizimli o‘rganishda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” muhim ahamiyatga ega. Ushbu lug‘atda keng qo‘llanadigan oshpazlik birliklari bilan bir qatorda ayrim tarixiy va shevaga oid shakllar ham qayd etilgan [2, 2023][27]. Oshpazlik leksikasining etimologik xususiyatlarini aniqlashda esa Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (Toshkent, 1999-2000) muhim manbalardan biri hisoblanadi [3, 283.][28]. Aytish mumkinki, o‘zbek oshpazlik leksikasi ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, unda tarixiy meros, hududiy xususiyatlar va madaniy aloqalar o‘zaro tutashgan. Ayniqsa, gibrid nominatsiya hodisasi mazkur tizimning dinamik xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois til tizimining mazkur qatlamini o‘rganishda faqat etimologik yoki leksik yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, lingvomadaniy, dialektologik va tarixiy yondashuvlarni birgalikda qo‘llash zarur deb hisoblaymiz. Gibrid nominatsiya hodisasi mazkur sohada dinamik xarakterga ega ekaniligi so‘rovnomalar asosida yanada oydinlashdi. Jumladan, “O‘zbek tili oshpazlik leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi uchun so‘rovnomada 413 nafar turli hudud vakili/respondent qatnashdi. Qatnashchilarning 81,6% zamonaviy yangi taom nomlari ko‘pligini bildirishgan.




Tilshunoslikda nominatsiya obyekt, hodisa yoki jarayonga nom berish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Mazkur jarayon til egasining borliqni idrok etishi, uni ma’lum belgilar asosida ajratishi va shu belgilarni til birliklari orqali ifodalashi bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oshpazlik leksikasidagi nominatsiya muayyan bir obyektni atash jarayonigina emas, balki murakkab semantik

[27] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023.
[28] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. I т. – Тошкент, 2000. – 600 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. II т. – Тошкент, 2003. – 600 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. III т. – Тошкент, 2009. – 283 б.

va madaniy asosga ega hodisa hisoblanadi, chunki taom yoki oziq-ovqat nomi ko‘pincha birgina belgiga emas, balki mahsulot tarkibi, tayyorlash usuli, pishirish muhiti, idish turi, ta’m xususiyati, shakl yoki iste’mol vaziyati kabi bir nechta omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi.

O‘zbek tili oshpazlik leksikasida gibrid nominatsiyalar muayyan tizim asosida shakllanganligini ko‘rish mumkin. Amaliy materiallar va mavjud lug‘aviy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday birliklar tasodifiy emas, balki tilning ichki derivatsiyaviy imkoniyatlari hamda tarixiy-madaniy aloqalar natijasida yuzaga kelgan tuzilmalar asosida shakllanadi. Shu sababli gibrid xarakterdagi oshpazlik nomlarini o‘rganishda ularning tarkibiy tuzilishi, semantik xususiyatlari va qo‘llanish muhiti kompleks tarzda tahlil qilinishi zarur. Ushbu nominatsiyalarda quyidagi tuzilishlar yetakchilik qiladi: (1-rasmga qarang).



1-rasm. **O‘zbek tili oshpazlik leksikasida gibrid nomlarning yasalishi**

Hozirgi o‘zbek tilida oshpazlik nomlarining gibridlashuvi, ayniqsa, shahar madaniyati, umumiy ovqatlanish sohasi, reklama tili, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar ta’sirida faolligi kuchaymoqda. Bu jarayonni faqat yangi taom nomlarining paydo bo‘lishi sifatida emas, balki zamonaviy iste’mol madaniyati va tilning nominativ imkoniyatlari o‘zaro tutashgan hodisa sifatida baholash lozim. Sababi, bugungi oziq-ovqat diskursida taom nomi nafaqat mahsulotni bildiradi, balki xizmat turi, brend imiji, milliylik belgisi, tezkorlik, qulaylik va reklama ta’sirini ham o‘zida jamlaydi. Zamonaviy shahar muhitida global gastronomik birliklar o‘zbekcha komponentlar bilan birikib, yangi nominativ shakllarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, *milliy burger, tandir lavash, somsa set, palov combo, oilaviy pizza, halol fastfud* kabi birliklar shular jumlasidandir. Ushbu nomlar hali akademik izohli lug‘atlarda barqaror leksik birlik sifatida qayd etilmagan, biroq ular amaliy nutq, reklama, menyu va raqamli savdo platformalarida real qo‘llanayotgan nominativ birliklar sifatida e’tiborga loyiqdir. Shu jihatdan ular zamonaviy o‘zbek tilining urbanistik oshpazlik diskursini o‘rganishda muhim empirik material bo‘la oladi. Zamonaviy gibrid nominatsiyalar tarixiy gibridlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Tarixiy

gibridlar, odatda, uzoq davom etgan turkiy-eroniy, arab va boshqa mintaqaviy madaniy aloqalar natijasida shakllangan. Bunday birliklar vaqt o‘tishi bilan fonetik, semantik va grammatik moslashuvdan o‘tib, o‘zbek tilining ichki tizimiga singib ketgan bo‘ladi. Masalan, *palov, somsa, kabob, manti* kabi birliklar bugungi kunda o‘zlashma sifatida sezilmaydigan darajada umumxalq leksikasiga aylangan. Zamonaviy gibridlar esa ko‘proq global bozor, xizmat ko‘rsatish sohasi, brendlar, tezkor ovqatlanish tizimi va raqamli kommunikatsiya bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Bu jihatdan ular tarixiy o‘zlashmalardan ko‘ra tezroq paydo bo‘ladi, tezroq tarqaladi va ba’zan qisqa vaqt ichida iste’moldan chiqishi ham mumkin. Masalan, *tandir lavash* birligida an’anaviy pishirish vositasi bo‘lgan tandir zamonaviy fastfud mahsuloti bilan birlashtiriladi. *Somsa set yoki palov combo* kabi birliklarda esa o‘zbekcha taom nomlari inglizcha tijoriy paketlash birliklari set va combo bilan qo‘shiladi. Mazkur holatlar reklama va menyu tilida milliy mahsulotni global savdo formatiga moslashtirishga intilish borligini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek tilida oshpazlik nomlarining gibridlashuvi tarixiy jarayonning yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Avvalgi davrlarda gibrid nominatsiyalar ko‘proq uzoq muddatli mintaqaviy madaniy aloqalar natijasida shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda ular global bozor, raqamli kommunikatsiya, zamonaviy xizmat ko‘rsatish madaniyati, ijtimoiy tarmoq hamda reklama tili ta’sirida tezkor paydo bo‘lmoqda. Mazkur jarayon o‘zbek tilining dinamik, ochiq va moslashuvchan nominativ tizimga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bois zamonaviy gibrid oshpazlik nomlarini alohida kuzatish, ularni matn korpuslari, reklama materiallari va ijtimoiy tarmoq tili asosida tahlil qilish kelgusidagi muhim ilmiy vazifalardan biri sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davronova A. O‘zbek va ingliz tillarida gibrid so‘zlarning onomastik birliklarda ifodalanishi // Ilm vaqti ilmiy jurnali. 2024. – № 4. – B. 93-97.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. I т. – Тошкент, 2000. – 600 б.;
4. Шу муаллиф. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. II т. – Тошкент, 2003. – 600 б.;
5. Шу муаллиф. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. III т. – Тошкент, 2009. – 283 б.